

Shohruh ABDIRAIMOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

## O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASH USULLARI

**Annotatsiya.** Maqolada ona tilida-  
gi matnni o'qib tushunish ko'nikmasini  
baholash usullari bayon qilingan, baholashda foydalaniladigan topshiriqlardan  
namuna keltirilib, test topshiriqlari tahlilga  
tortilgan, xulosalarga kelangan.

**Kalit so'zlar:** o'qib tushunish, ba-  
holash, samarali usul, test, test turlari.

**Annotation.** The article discusses  
the methods of assessing the ability  
to read and understand the text in the  
native language, provides examples of  
tasks used in the assessment, analyses  
the test tasks and draws conclusions.

**Key words:** reading comprehension,  
assessment, effective method,  
test, types of tests.

**Аннотация.** В статье рассмат-  
риваются методики оценки умения  
читать и понимать текст на родо-  
ном языке, приводятся примеры  
заданий, используемых при оце-  
нивании, анализируются тестовые  
задания и делаются выводы.

**Ключевые слова:** чтение и по-  
нимание, оценка, эффективный ме-  
тод, тест, виды тестов.

Ma'lumki, testologiyada baholash jarayonining eng muhim qismi o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish uchun topshiriqlar ishlab chiqish jarayoni bo'lib, test tuzishdan oldin topshiriq tuzish metodikasi va mazmuniga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Baholash nazariyasida test tuzish metodikasi ham yillar davomida yangilanib, tadrijiy rivojlanib bormoqda. Test topshiriqlari maqsadi, qo'llanilish o'rni, shakliga ko'ra mahalliy manbalarda ikkiga ajratilgan:

- yopiq turdag'i testlar (taklif qilingan javoblardan to'g'risini topishga yo'naltirilgan);
- ochiq turdag'i testlar (test topshirig'iaga test topshiruvchi yozma ravishda javob kiritadi). [5: 40]

Boshqa manbalarda esa bu test turlari ifodalanishiga ko'ra ham bir-biridan farqlanishi qayd etilgan. Xususan, rus olimasi S.A.Semenovskaya o'zining ilmiy ishlarida yopiq turdag'i testlarning oltita turi borligini keltiradi:

1. To'g'ri javobi bitta bo'lgan testlar.
2. To'g'ri javobi bir nechta bo'lgan testlar.
3. Muvofiqlikni aniqlovchi testlar.
4. Ketma-ketlikni aniqlovchi testlar.
5. Gradual testlar.
6. Muqobil testlar. [6: 56]

K.Jalilov esa "Baholash nazariysi asoslari" o'quv qo'llanmasida yopiq testlarning quyidagi turlarini sanab o'tadi:

- muqobil javobli;
- to'g'ri – noto'g'ri shaklli;
- moslashtirish testlari;
- ketma-ketlikni topish testlari.

Mazkur manbada ochiq test topshiriqlariga ham to'xta-lib, uning uch turi xususida fikr yuritiladi:

- qisqa javobni talab qiluvchi;
- kengaytirilgan javobni talab qiluvchi;
- amaliy test topshirig'i. [3: 26]

Mazkur qarashlarni umumlashtirgan holda ona tilida matnni o'qib tushunish malakasini baholash uchun test topshiriqlarining quyidagi turlaridan foydalanishni ma'qul deb topdir:

- bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli;
- bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli;

- moslashtirishni talab qiluvchi;
- "binar";
- qisqa javobni talab qiluvchi;
- kengaytirilgan javobni talab qiluvchi.

Quyida keltirilgan matn asosida fikrlarimizni asoslashga harakat qilib ko'rdik.

### O'ZBEKISTON AHOLISINING KO'PAYISHI

Aholi sonining ko'payishi – davlat rivojlanishi va taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillardan biri. Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholishunoslik jamg'armasining 2018-yildagi ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston aholi soni bo'yicha jahonda 44-o'rinda turadi va aholi soni o'sib bormoqda. Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda tug'ilish soni o'lim soniga nisbatan ortganligi hisobiga aholi soni ko'payib bormoqda.

Mustaqililik yillarda mamlakatimizda aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatildi. 1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug'ilgan bo'lsa, keyingi yillarda tug'ilish soni kamayib, 2001-yilda tug'ilish 513 ming nafarni tashkil etdi. Keyinchalik aholining turmush farovonligi ko'tarilishi bilan tug'ilish soni ham ko'paydi. 2017-yilga kelib 716 mingdan ortiq chaqaloq tug'ilgan bo'lsa, 2018-yilda 768 mingdan ortiq bola dunyoga kelgan. 2019-yil esa 815,9 ming bola tug'ilishi ro'yxatga olingan bo'lib, 1000 aholiga tug'ilish darajasi 24,3 promille ni tashkil etdi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 1 promillega ko'paydi. Umuman olganda, O'zbekistonning domiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 33905,8 ming kishini tashkil etmoqda.

Mehnatga yaroqli yoshdan kichiklar aholining 30,5%, mehnatga layoqatli yoshdagilar 58,9% va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 10,6% ni tashkil etdi.

Aholi sonining oshishiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri umr davomiyligi ko'rsatkichidir. Mamlakatimizda umr davomiyligi ko'rsatkichida ham so'nggi yillarda o'sish kuzatilgan, jumladan, 1991-yilda ushbu ko'rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 70,8 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni tashkil etdi. 2016-yilga kelib esa 73,8 yoshni tashkil etgan. Shuningdek, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikada o'lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o'limi ko'rsat-

kichlari pasaydi va bu respublika aholisi o'tasida umr davomiyligi ko'rsatkichining o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.  
(*Internet manbalari asosida tayyorlandi*)

**Quyidagi savollarga matn asosida javob bering.**  
**Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chiring:**

**1. 2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?**

Mazkur test topshirig'i qisqa javobli ochiq turdag'i test topshirig'i bo'lib, bunday topshiriqlar yordamida matnda aniq ifodalangan ma'lumotni (raqam, nom va hokazo) topa olish va tushunish malakasi baholanadi. Bu o'quvchida kerakli ma'lumotni axborotlar ichidan qidirib topa olish layoqatini shakllantiradi. Baholashda bunday topshiriqlardan ko'p miqdorda foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki bu malaka quyi kognitiv darajani belgilaydi. Bunday topshiriqlarga test topshiruvchilarning aksariyati to'g'ri javob beradi. Tajribamizda 95% ga yaqin o'quvchilar mazkur topshiriqnining javobini to'g'ri topa olgan.

**2–3. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi hukmlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.**

1. 1991-yilda tug'ilish ko'rsatkichi hozirgi ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan.

- A. To'g'ri      B. Noto'g'ri

2. Mustaqillikdan keyin to 2000-yillargacha tug'ilish soni pasayishi kuzatilgan.

- A. To'g'ri      B. Noto'g'ri

Mazkur test topshirig'i binar (ikkita javobli) turdag'i test topshirig'i bo'lib, bunday topshiriqlar orqali matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma'lumotlarni o'qish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'tasidagi bog'liqliklarni tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash bilan bog'liq bo'lgan malakalarni baholash mumkin. Bu esa o'quvchining haqiqiy mazmunni anglash, kinoya, piching kabi tagma'nolarni fahmlash, umuman, nutqiy vaziyatlarni idrok etish kabi ko'nikmasini rivojlantiradi, shuningdek, o'quvchilarda vizual axborotni o'qiy olish ko'nikmasini ham shakllantiradi.

**4–5. Berilgan ma'lumotlar va unga aloqador vizual ma'lumotlarni o'zaro moslashtiring. (Eslatma: javob variantlari orasida ortiqchasi bor)**

Mazkur test topshirig'i moslashtirishni talab qiladigan

test topshirig'i bo'lib, bunday topshiriqlar orqali ona tilidagi matnni o'qib tushunish malakasi bilan bog'liq bo'lgan matnda yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'tasidagi bog'liqliklarni tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matn yoki uning qismlari umumiyligi ma'nosini tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni angiylash; matn mazmunini tushunishi va talqin qila olish kabi ko'nikmalarni baholash mumkin. Bu esa o'quvchida haqiqiy mazmunni anglash, nutqiy vaziyatlarni idrok etish, o'zaro bog'liqliklarni fahmlash, voqelevikka munosabat bildirish, verbal va vizual axborot o'tasidagi bog'liqliklarni idrok eta olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

**6. Matn mazmuniga mos ma'lumotni aniqlang.**

A. O'zbekistonda erkaklarning o'tacha umr davomiyligi ayollarnikiga nisbatan yuqori.

B. O'zbekistonda o'tgan asrning 50-yillarida aholi soni o'sishdan to'xtagan.

C. O'zbekiston aholisining qariyb 70 foizi mehnatga layoqatli hisoblanadi.

D. Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 2018-yilda qariyb 160 ming o'lim kuzatilgan.

Mazkur test topshirig'i bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i bo'lib, bunday topshiriqlar orqali ona tilidagi matnni o'qib tushunish malakasi bilan bog'liq bo'lgan matnda o'z ma'nosida ishlatalgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish; matnda ko'chma ma'noda ishlatalgan leksik birliklarning ma'nosini tushunish; matndagi ibora, maqol, hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish; matn qismlarini bog'lovchi vositalar ma'nosi va ularning matndagi vazifasini tushunish; matning grammatik qurilishini anglash; matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'tasidagi bog'liqliklarni tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matn yoki uning qismlari umumiyligi ma'nosini tushunish kabi ko'nikmalarni baholash mumkin. Bu esa o'quvchida o'zaro bog'liqliklarni fahmlash, haqiqiy mazmunni anglash, nutqiy vaziyatlarni idrok etish, voqelevikka munosabat bildirish, o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotni ma'lum darajada integratsiyalash, matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

| Verbal ma'lumotlar                                  | Vizual ma'lumotlar           |
|---|------------------------------|
| 4. 2000-yilda erkaklarning o'tacha umr davomiyligi? | A. 73,2 yosh                 |
| 5. 2000-yilda ayollarning o'tacha umr davomiyligi?  | B. 70,8 yosh<br>C. 68,4 yosh |

Xullas, o'quvchilarning ona tilidagi matnlarni o'qib tushunish malakasini test topshiriqlari yordamida baholashda yuqorida sanab o'tilgan test topshiriqlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Bunda o'quvchilarning o'qib tushu-

nish malakasini baholash test topshiriqlarining ishonchiligi hamda baholash natijalarining obyektivligi oshishiga xizmat qiladi.

**Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Ismailov A. va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent: Sharq, 2019.
2. J.Charles Alderson. Assessing Reading. – Cambridge University Press, 2000.
3. Jalilov K. Baholash nazariyasini asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. M.Zakirova, N.Ermatova. Test tuzish metodikasi va ekspertrizasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2016.
5. Z.Mirvaliyev. Pedagogik o'chovlarda test topshiriqlar turlari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2016.
6. С.А.Семеновская. Основы тестологии. Учебное пособие. – Саратов: Саратовский государственный университет, 2015.